



Functional features of positive and negative wishes

Durdona SAIFUTDINOVA¹

Andijan State University

ARTICLE INFO

Article history:

Received April 2024

Received in revised form

10 May 2024

Accepted 25 May 2024

Available online

25 June 2024

Keywords:

speech genres,
speech genre “wish”,
linguistic features,
positive wishes,
negative wishes,
addressee,
intention,
wishes.

ABSTRACT

The article describes the expression of the addressee's wishes in the positive and negative types of the tilak speech genre in the language system, as well as the features of the evaluation and research of the tilak speech genre as speech act in the context of other speech genres.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss1/S-pp504-508>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Ijobiy va salbiy tilaklarning funksional xususiyatlari

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

nutqiy janrlar,
tilak nutqiy janri,
lingvistik xususiyatlar,
ijobiy tilaklar,
salbiy tilaklar,
adresant,
niyat,
xohish-istaklar.

Maqolada til tizimidagi tilak nutqiy janrining ijobiy va salbiy tilak tiplarida adresantning xohish-istaklari bayon qilinishi hamda tilak nutqiy janrning boshqa nutqiy janrlar tarkibida nutqiy akt sifatida baholanishi va tadqiq etilish xususiyatlari yoritilgan.

¹ Senior teacher, Andijan State University.

Функциональные особенности положительных и отрицательных пожеланий

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

речевые жанры,
речевой жанр
«пожелание»,
языковые особенности,
положительные
пожелания,
отрицательные
пожелания,
адресат,
намерение,
пожелания.

В статье описано выражение желаний адресата в положительных и отрицательных типах речевого жанра «пожелание» в языковой системе, а также особенности оценки и исследования речевого жанра «пожелание» как речевого акта в контексте другой речевой деятельности.

Zamonaviy tilshunoslikda XX asrning 50-yillaridan tilshunoslar e'tiborining nutqiy hodisalar tadqiqiga qaratilishi til tizimida o'ziga xos nutqiy maqsad, kompozitsiya va uslubga xoslangan nutqiy butunliklarning lingvistik tadqiqini boshlab berdi. Hozirgi kunda nutqiy janrlar tadqiqida nutqiy janrlar tipologiyasini tuzish va umumiy tasnif tamoyillarini ishlab chiqishda nutqiy janrlar alohida tiplarining o'ziga xos lingvistik va ekstralingvistik xususiyatlarini aniqlash muhim bo'lib bormoqda.

O'zbek tilidagi tilak nutqiy janrining lingvistik tadqiqi yuzasidan alohida tadqiqotlar mavjud emas. Ammo tilak nutqiy janriga yaqin bo'lgan M. Bazarova ishida ijobiy istak mazmunli nutqiy birliklarning umumiy lingvistik xususiyatlari ko'rib o'tilgan. Bunda asosiy e'tibor o'zbek tilidagi ijobiy istak mazmunini ifodalovchi nutqiy birliklarning ijtimoiy omillari, so'z ma'nolarining o'zgarishi, frazema va metaforik mazmunli gaplarning o'rni, jinslararo va yoshga ko'ra farqli qo'llanishi kabi leksik hamda semantik xususiyatlari, buyruq-istak mayli fe'llarining qo'llanilishi, juft va takroriy so'zlarning qo'llanilishi, otlashish hodisasi kabi morfologik; sodda gap, qo'shma gap, undov gap, gap bo'laklarining semantik-sintaktik pozitsiyasi kabi sintaktik xususiyatlari kabilarga qaratilgan. Mavjud manbalarda tilak nutqiy janrini o'rganishga bag'ishlangan lingvistik tadqiqotlarning mavjud emasligi ijobiy va salbiy tilaklarning funksional xususiyatlari mukammal o'rganilishi talab etiladi.

O'zbek tilida ijobiy va salbiy tilaklarning funksional xususiyatlarini yoritishda tilshunoslikning tavsiflash, semantik tahlil, komponent tahlil kabi usullardan foydalanildi.

Tilak nutqiy janri nutqiy janrlar tarkibida so'zlovchining xohish-istagini bildiruvchi nutqiy janr sifatida muayyan o'rin egallaydi. Tilak nutqiy janrining davrlar osha bizgacha yetib kelgan shakllari shuni ko'rsatadiki, tarixan kishilarning bir-birlariga bo'lgan turli kommunikativ munosabatlari tilak nutqiy janrining turli tiplarini yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Bunda so'zlovchining xohish-istagini anglatuvchi tilak nutqiy janri har qaysi davrda adresantning o'ziga va boshqalar uchun ham yaxshiliklar tilash, shu bilan birga, ularning o'zi va boshqalarga ham hayrixohligi yoxud boshqalarning xatti-harakati va so'zlariga o'zining salbiy munosabatini, kimningdir xatti-harakatiga qarshiligi va noroziligini ham ifodalagan. Shunga ko'ra, til tizimida tilak nutqiy janrining ijobiy va salbiy tilak tiplari shakllangan. Tilak nutqiy janrida so'zlovchining ijobiy yoki salbiy istak-xohishlari ifodalanar ekan, ijobiy tilaklar o'zi va boshqalar uchun yaxshi istak va

xohishlarni aytishni, salbiy tilaklar esa o'zi va boshqalar uchun yomon istak va xohishlarni bayon etishni nazarda tutadi. Shu jihatlarga ko'ra tilak nutqiy janri mazmunan murakkab sistemali nutqiy butunlik bo'lib, unda adresatning xohish-istaklari bayon qilinadi.

Demak, til tizimida tilak nutqiy janri so'zlovchining narsa-hodisalarga, tinglovchilarga bo'lgan ijobiy va salbiy munosabatini ifodalab, o'z mazmuniga ko'ra ijobiy va salbiy tilaklarni anglatadi. Ijobiy tilaklar ikki tomonlama xarakterga ega bo'lib, bir tomondan, so'zlovchining Xudoga o'z niyati, maqsad-u muddaosini aytishni, ikkinchi tomondan, Xudodan so'rash mazmunida tinglovchi uchun ham foydali bo'lgan maqsadlarni aytish jarayonlarini o'z ichiga oladi. Ijobiy tilakning adresatga yo'naltirilgan shaklidagi tilak nutqiy janri tipi so'zlovchining o'z xayrixohligini tinglovchiga yetkazish vazifasini ham bajaradi.

Ijobiy tilak nutqiy janri boshqa nutqiy janrlar tarkibida mazmunan alohida nutqiy akt sifatida voqealanib, so'zlovchining o'z hayrixohligini bildiruvchi barcha nutqiy janrlar tarkibida qo'llanilishi bilan xarakterlanadi. Masalan, *Qotilni topishga ishonasizmi? – dedi Chuvrindi qog'ozga imzo cheka turib. – Yuz foiz ishonaman, – dedi Zohid qat'iy tarzda. Bu gapdan Chuvrindi miyig'ida kulimsiragan bo'lsa-da, Zohidning tik qarashiga bas kelolmay ko'zlarini olib qochdi. – Omadingizni bersin, – deb xonadan chiqmoqchi bo'lganida Zohid to'xtatdi:[7.49].* Ushbu jumlar orqali so'zlovchining xayrixohligi tilak nutqiy janri vositasida ifodalanmoqda. Eslatib o'tamiz, har bir nutqiy janr boshqa nutqiy janrlar tarkibida nutqiy akt sifatida baholanishi va tadqiq etilish xususiyatiga ega.

Maqtov+tilak: *Juda chiroyli, juda ajoyib va ma'noli so'zlar (maqtov). Dunyoda tinchlik, O'zbekistonda rivojlanish bo'lsin! (tilak)*

Tilak+shukronalik: *Shavkat aka, omon bo'ling, yurtboshimizni, O'zbekistonni o'ylaydigan prezidentimizni Olloh bergan bizga!*

Minnatdorchilik+da'vat+tilak: *Otamizga rahmat. O'zbekiston olg'a! Omad yor bo'lsin!*

Qadah so'zi + tilak: *Darvoqe, Toshkentboy kamgap edi. O'tirishlarda ham qadah so'zi berganimizda chaynalib, ezilib o'tirmas, gapni juda qisqa qilar, nari borsa: Hamma sog' bo'lsin, deb qutulardi [14].*

Tabrik+tilak+duo: *– E, keling, Zohidjon, yangi yillar qutlug' bo'lsin. Oilangiz, ota-onangiz sog'-salomatmilar? Baxtingizga ko'p yillar yashashsin, to'ylaringizga bosh bo'lishsin[6.72].* Bunda – *E, keling, Zohidjon* jumlasida o'zbek lingvomadaniyatida mehmonni yaxshi qarshilaganlikni, xush ko'rganlikni ifodalovchi, matnning ayni diskursiv vaziyatidan darak beruvchi jumla, *yangi yillar qutlug' bo'lsin* jumlasida **tabrik**, *Oilangiz, ota-onangiz sog'-salomatmilar? Baxtingizga ko'p yillar yashashsin, to'ylaringizga bosh bo'lishsin* jumlalarida **tilak** va **duo** nutqiy janri zanjirini tashkil qiladi. **Tabrik+tilak+duo** shaklidagi tilak nutqiy janri ko'proq diniy xususiyat kasb etib, ba'zan diniy so'zlar yordamida ham ifodalanadi. Masalan, Karimulla Asadbek yolg'iz emasdir, degan xavotirda edi. Ichkariga kirgach, yayrab ketdi. Ildam yurib kelib Asadbek bilan qo'shqo'llab so'rashdi. Asadbek o'rnidan qo'zg'olmay, qo'l uchini berdi. – *O'rusning yangi yili muborak bo'lg'ay*, – dedi Karimulla ishshayib. Asadbek unga javob bermadi. “Xo'sh, nimaga kelding?” degandek norozi qiyofada boqdi. Karimullaning maqsadi yangi yil bilan tabrik etish emas, balki ko'ngil so'rash, shu orqali o'zining ham ruhan “aziyat chekayotganini” ma'lum qilib qo'yish edi. Ammo Asadbekning qarashi uni shoshirib qo'ydi. “Sizga qasd qilganlar past bo'lsin, qizingizning baxti ochilib ketadi, inshoolloh”, deb

diliga tugib kelgan gaplarini ham unutdi. – *Bitta xonaga joy qilib namozni boshlab yubordik. Butun mahalla duoyi joningizni qilib yotibdi*[6.68]. Bunda *O'rusning yangi yili muborak bo'lg'ay* jumlasini tabrik, *Sizga qasd qilganlar past bo'lsin, qizingizning baxti ochilib ketadi* tilak, *inshoolloh* jumlasini esa duo nutqiy janriga tegishlidir.

Sharaflash+tilak: *Yashasin do'stlik! Butun dunyoda tinchlik bo'lsin!*

Minnatdorchilik+da'vat+tilak: *Otamizga rahmat. O'zbekiston olg'a! Omad yor bo'lsin!*

Salbiy tilaklar esa so'zlovchining o'zi uchun nomaqbul bo'lgan xatti-harakat, voqea-hodisalarga, ba'zan biror shaxsga va shaxsning xatti-harakatlari va so'zlariga bo'lgan munosabatini, noroziligini anglatadi. Salbiy tilaklar til tizimida qarg'ish, qarg'anish, qasam ichish, so'kish, so'kinishning ayrim turlari tarkibida kelib, so'zlovchi yoki tinglovchi yoxud bularga tanish bo'lgan kimsalar/narsa-predmetlarga yomonlik tilash kabi mazmunlarga ega bo'ladi. Salbiy tilaklar ham til tizimida funksional jihatdan hayratlanish, so'kinish, koyish, qarg'anish, qarg'ish, nolish kabi funksional vazifalarni bajaradi.

Jumladan:

Sof qarg'ish: *Juvongin o'lgur noinsof! Bolaning uvoli tutgur imonsiz! Eringni birovdan kam joyi yo'q ediku! Cho'loq bo'lsa devor oshib o'g'rilik qilib bo'lmagandur! To'rt yil qon kechib keldiku! Eri urushda o'lgan qanchadan-qancha gulday juvonlar yuribdi sabr qilib. Aqalli bolangni o'ylasang bo'lmasmidi, imonfurush! (O'. Hoshimov) [13.47].*

Ayollarga xos qarg'ishona so'zlash: *Peshindan keyin nuqul o'ng qovog'im uchaverdi. Qurib ketsin! Shu ko'zim uchsa xafa bo'laman. O'zimni chalg'itish uchun tappi qildim, hovlini alib chiqqan bo'ldim. Dilim o'lgur hyech yorishmaydi. Dardimni aytay desam, Robiya ham ishda (O'. Hoshimov).*

Xayratlanish: *-Voy, o'lay, Voy sho'rim qursin, – degancha qo'lidagi tugunni ayvonga uloqtirdi.*

Ko'rinadiki, til tizimida yaxshi niyat tilash, duo, tabrik, qutlash, muborakbod etish, qadah so'zi, dastxat, bag'ishlov, xayrlashish, salomlashish, ta'ziya bildirish kabi bir qator nutqiy janrlari ijobiy tilak aytish semasi, qarg'anish, qarg'ish, so'kinish, nolish, qarg'ishona so'zlash kabilar esa salbiy tilak semasi ostida birlashadi.

Ushbu tilak nutqiy janri tiplarining sotsiolingvistik, pragmlingvistik, diskursiv, kognitiv tilshunoslik kabi zamonaviy lingvistik tadqiqotlar doirasida tahlil qilinishi tilak nutqiy janrining verbal, noverbal, lingvistik atributlari mohiyatini to'liq tushunishga yordam beradi. Shu nuqtayi nazardan tilak nutqiy janri yuzasidan alohida maxsus va chuqur lingvistik tadqiqotlar olib borish zaruriyati mavjud. Bu esa nutqiy janrlar nazariyasida nutqiy janrlar klassifikatsiyasi va tipologiyasini tuzishda lingvistik asos bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Базарова М. Ўзбек тилидаги ижобий истак мазмунини ифодаловчи нутқий бирликларнинг лисоний хусусиятлари (дуолар ва нутқий этикетлар мисолида). филол.фан.номз. ... дисс. – Т., 2007. – Б.3.
2. Бахтин М.М. Проблема речевых жанров. Литературно-критические статьи. – Москва.: Художественная литература, 1986. – С. 428-472.
3. Вежбицка А. Речевые акты. // Новое в зарубежной лингвистике. – М.: Прогресс, 1985. – Вып.15. Лингвистическая прагматика. – С. 251-276.

4. Вежбицка А. Речевые акты. // Жанры речи. – Саратов, 1997. – Вып. 1. – С. 99-111.
5. Дементьев В. Теория речевых жанров (Коммуникативные стратегии культуры). – М.: Знак, 2010. – С. 584.
6. Малик Тоҳир. Шайтанат. 1-китоб. – Т.:Шарқ, 1992. – 210 б.
7. Малик Тоҳир. Шайтанат. 2-китоб. – Т.:Шарқ, 1995. – 216 б.
8. Малик Тоҳир. Шайтанат. 3-китоб. – Т.:Шарқ, 1997. – 220 б.
9. Малик Тоҳир. Шайтанат. 4-китоб. – Т.:Шарқ, 2000. – 267 б.
10. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати (туркий сўзлар). –Т.: Университет, 2000. – Б.233.
11. Сулаймонов М. Ўзбек тилидаги дастхатларнинг социолингвистик тадқиқи. филол.фан.номз. ... дисс. – Т., 2009. – Б.12.
12. Шерстяных И.В. Теория речевых жанров: лекционно-практический курс для магистрантов. – М.: ФЛИНТА, 2014. – 546 с.
13. Ҳошимов Ў. Икки эшик ораси. – Т.: Янги аср Авлоди. – 688 б.
14. Йўлдош А. Ҳаёт энди бошланади. Ҳикоя. <https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/abduqayum-yoldosh/>